



FORS TILIDA OT YASOVCHI INFiksAL ALLOMORFLAR

Saidoripova Dilorom Saidaxmad qizi

TDSHU Eronshunoslik va afq 'onshunoslik

Oliy maktabi o 'qituvchisi

Tel: +9989909629295.

d-mirzayeva@mail.ru

Annotatsiya. Fors tili morfologiyanida affiksatsiya usuli orqali ot yasash alohida o 'ringa ega. Bu usulda asosga prefiks, infiks hamda suffiks qo 'shish orqali yangi so 'z yasaladi. Jumladan, infiks va uning infiksallomorflar orqali ot yasash fors tili lug 'at boyligining yanada kengayishida muhim ahamiyatga ega. Bunday otlarning yasalishida ot + infiksalloroflar+ ot, HZFN (hozirgi zamon fe'l negizi) + infiksalloroflar + HZFN (hozirgi zamon fe'l negizi), O'ZFN (o'tgan zamon fe'l negizi) + infiksallomorflar + HZFN (hozirgi zamon fe'l negizi) hamda HZFN (hozirgi zamon fe'l negizi) + infiksallomorflar + O'ZFN (o'tgan zamon fe'l negizi) kabi modellari eng ko 'p uchraydigan modellardir. Mazkur maqolada fors tilidagi ot yasovchi infiksallomorflarning funksional-semantik xususiyatlari hamda kontekstda ishlatilish masalalari ko 'rib chiqilgan. Jumladan, ot yasovchi ՚ [ā] infiksining ՚ [tā] allomorf, ՚ [o] infiksining ՚ [be] allomorflari manbalar va badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar orqali tadqiqqa tortilgan.

Tayanch so'zlar: HZFN (hozirgi zamon fe'l negizi), O'ZFN (o'tgan zamon fe'l negizi), interfiks, infiks, infiksallomorf, affiksatsiya, yasama ot, yasama sifat, kopulyativ qo 'shma so 'z.

Annotation. The affixation of nouns has a special place in the morphology of the Persian language. This method creates a new word by adding prefixes, infixes, and suffixes to the base. In particular, the creation of a noun by infix and its infix allomorphs is important in further expanding the vocabulary of the Persian language. In the construction of such nouns noun+ infix allorophs + noun, PrTVB(present tense verb base) + infix allorophs + PrTVB(present tense verb base), pronoun+ infix allorophs +pronoun, number + infix allorophs + number are the most common models. This article discusses the functional and semantic properties of infix allomorphs that make Persian noun and adjective, as well as their use in context.

Also in this article, allomorph ՚ [tā] of the infix noun ՚ [ā], ՚ [be] allomorphs of the infix ՚ [o] are studied through examples derived from sources and literary books.

Keywords: PrTVB (present tense verb base), PTVB (past tense verb base), interfiks, infix, infix allomorph, affixation, deriviative noun and copulative compound word.

Kirish. Ushbu maqolada fors tilidagi infiksallomorflardan yasalgan otlarning funksional-semantik xususiyatlari hamda kontekstda ishlatilish masalalarini ko 'rib chiqish va ularni stilistik jihatdan tahlil qilish asosiy maqsad qilib olingan. Bu uchun biz





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



L.S.Peysikovning “Очерки по словообразованию персидского языка” hamda Doktor Iron Kalbosining “Sāxt-e ešteyāyi-ye vāže” asarlarida keltirib o‘tilgan infikslarga tayangan holda allomorfi mavjud bo‘lgan ba’zi infikslarni tanlab oldik.

Infiks (miyānvand) tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, rus tilshunos olimi Peysikov “infiksga – [ān] affiksini misol tariqasida keltirib, buni fe'l yasovchi qo‘srimcha deb ataydi va HZFNGa -[ān] infiksini qo‘sish shimali kauzativ ma’no beradigan quyidagi fe’llarni yasaydi: *Gozarāndan* - “o’tkazmoq”, *xābāndan* – “uxlatmoq”, *tarsāndan* – “qo‘rqiymoq”, *raqsāndan* – “raqsga tushirmoq”.

[Пейсиков. 1973. 195.]

Eronlik tilshunos Doktor Iron Kalbosi o‘zining “Sāxt-e ešteyāyi-ye vāže” asarida ba’zi o‘rinlarda fors tilida میانوند [miyānvand] infiks mavjud emas deya ta’kidlagan bo‘lsa, boshqa o‘rinlarda infiksni پیوند [peyvand] deya ta’riflaydi, حرف [harf] yordamchi so‘z deb ataydi. Ma’lumki, yordamchi so‘z bu mustaqil ma’no anglatmaydigan so‘zdir. Bundan kelib chiqadiki, bu tilshunos olim infiks haqida aniq bir to‘xtamga kela olmagan.

Yana boshqa eronlik tilshunos olimlar Doktor Hasan Anvari va Doktor Hasan Ahmadi Givilar o‘zlarining “Dastur-e zabān-e fārsi” nomli grammatik asarida میانوند [miyānvand] ya’ni infiks tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Prefiks (*pišvand*) va suffiks (*pasvand*)lardan tashqari yana shunday qo‘srimcha borki, u qo‘srimha so‘zlarning o‘rta qismida keladi va u infiks (*miyānvand*) deb ataladi. Masalan: *sarāsar*-“hamma yerda”, “hamma yer bo‘ylab”, *labālab* - “limmo-lim” “to‘la”, *kamābiš* – “kam yoki ko‘p” “taxminan” va boshqalar.

Horuf-e ezāfe, ya’ni ko‘makchilarining ba’zilari ham *miyānvand* (infiks) vazifasida keladi. Masalan:

Be: *sarbesar* - “hamma yerda” “hamma yer bo‘ylab”

tā: *sartāsar* - “hamma yerda” “hamma yer bo‘ylab”

dar: *peydarpey* - “izchil ravishda”. [67 . ص - 1385 . گیوی و احمدی نوری]

Bundan kelib chiqadiki, hali hanuz tilshunos olimlar fors tilidagi infikslar haqida aniq bir to‘xtamga kelishmagan. Infiksning tahliliga turlicha yo‘nalishdagi qarashlar mavjud bo‘lib, bu mavzu tilshunoslardan orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Biz yuqorida fikrlarni tahlil qilgan holda shunday xulosaga keldik: infikslar ikki asosni bir-biriga bog‘lovchi vazifani bajargan holda yangi mustaqil ma’no anglatuvchi so‘zni yasash uchun xizmat qiladigan morfemadir.

Ta’kidlab o‘tilganidek, infiks ikki mustaqil ma’no anglatuvchi morfemani bir-biriga bog‘laydi va yangi ma’no anglatuvchi qo‘srimha so‘zni hosil qiladi. Ya’ni infiks morfemalar morfologik vazifani bajaradi va bu turdagiligi qo‘srimchalar qo‘srimha so‘z yasovchi infikslardir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda biz ushbu maqolamizda fors tilidagi ot hamda sifat yasovchi infiks morfemalarning variantlarini ya’ni allomorflarini manbalar asosida ko‘rib, tahlil qilib chiqamiz. Bunda biz o‘z allomorfiga ega bo‘lgan 2 ot yasovchi infiksni tanlab oldik.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YALAR



1) ئە [ā] infiksining تا [tā] allomorfi mavjud bo‘lib, bu qo‘shimchalar turli turkumga oid so‘zlardan kopulyativ qo‘shma otlarni yasashda xizmat qiladi. Masalan:

ot+ā+ot = qo‘shma ot: بناگوش [banāguš] – qulquning yumshoq qismi

HZFN +ā+ot = qo‘shma ot: تکاپوی [tekāpuj] – ovoragarchilik, sargardonlik

HZFN+ā+HZFN = qo‘shma ot : کشاکش [keşākeš] – konflikt, falokat

تا [tā] infaksi ham turli so‘z turkumlaridan kopulyativ qo‘shma so‘z yasaydi. Shu bilan birga ئە [ā] infaksi bilan almashinib kela oladi. Masalan:

دورتادور [dourtādour] – دورادور - chor-atrof

دورتادور [dourtādour] so‘ziga misol:

بورتادور آن باغ را دیوار کشیده اند.

Dourtādour-e ān bāy rā divār keşideand.

[<https://www.vajehyab.com/dekhoda>]

“Bog‘ning **atrofiga** devor tortilgan edi”.

دورادور [dourādour] so‘ziga misol:

بازار قدیمی اصفهان در بورادور میدان نقش جهان نиз يكى از مهمترین نقاط تولید و عرضه صنایع دستی کشور به شمار می رود . [<https://www.yjc.ir>]

Bāzār-e yadimi-ye Esfahān **dourādour-e** meydān-e Nayš-e Jahān niz yeki az mohemtarin noyte-ye tovlid o arze-ye sanāe dasti-ye keşvar be şomār miravad.

“Naqshi Jahon maydoni **atrofdagi** qadimiy Isfahon bozori ishlab chiqarish va mamlakat qo‘l sanoati, ya’ni hunarmandchiligining eng muhim nuqtasi hisoblanadi”.

ئە [ā] infaksi va uning تا [tā] allomorfi vazifa jihatidan turli so‘z turkumlaridan kopulyativ qo‘shma so‘zlar yasaydi. Stilistik jihatdan qo‘llanilishida farq mavjud emas. Bu ikki infiksall allomorflar bir-birining o‘rnida almashinib kela oladi.

1) ئە [o] infiksining به [be] allomorflari mavjud bo‘lib, bu qo‘shimchalar turli turkumga oid so‘zlardan qo‘shma otlarni yasaydi. Masalan:

ot+o+ot = qo‘shma ot: مرز و بوم [marzobum] - mamlakat

پر و بال [parobāl] – harakat erkinligi

Olmosh+o+olmosh=qo‘shma ot : چون و چرا [čunocerā] – bahs-munozara

Son+o+son=qo‘shma ot : يك و دو [yekodo] - bahs-munozara

Sifat+o+sifat=qo‘shma ot: تاریک و روشن [tārikorovşan] – g‘ira –shiralik

HZFN+o+O‘ZN= qo‘shma ot

بند و بست [bandobast] – kelishuv, til biriktirish

O‘ZN+o+HZFN = qo‘shma ot : گفتوجو [goftogu] – diolog, suhbat

گفتوجو نوعى برهمنش بин دو يا چند نفر و ارتباطى بداھه بین دو يا چند نفر از مردم در راستاي رسوم موجود مى باشد.

Goftogu nav‘i barhamkoneš beyn-e do yā čand nafar va ertebāti bedāhe beyn-e do yā čand mardom dar rāstā-ye rosum movjud mibāšad. [<https://fa.wikipedia.org/>]

Suhbat ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro munosabatini va mavjud bo‘lgan urf-odatlarga muvofiq ikki yoki undan ortiq kishi orasidagi muloqotni ta’minlaydi”.

O‘ZN+o+ O‘ZN = qo‘shma ot





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



آمد و رفت/[*āmadorraft*] – 1) harakat, 2) bir-birini borib ko‘rish
به [be] infaksi ham turli so‘z turkumlaridan kopulyativ qo‘shma so‘z yasaydi.
Shuningdek, و [o] infaksi bilan almashinib kela oladi. Masalan:

يک و دو - [yekbedo] - bahs –munozara

و [o] infiksining بـ [be] allomorflari vazifa jihatidan turli so‘z turkumlaridan kopulyativ qo‘shma so‘z yasaydi. و [o] infaksi va uning به [be] infiksall allomorfining stilistik jihatidan qo‘llanilishida farq yo‘q. Bu ikki infiksall allomorflar bir-birining o‘rnida almashinib kela oladi.

Xulosa

Manbalar asosida olib borilgan tahlildan ma’lum bo‘ldiki,

1. ئا ā infiksining تـ tā allomorfi bilan yasalgan otlar universal bo‘lib, hamma uslublardagi matnlarda uchratish mumkin.

2. و [o] infiksining بـ [be] allomorfi bilan yasalgan otlar universal bo‘lib, hamma uslublardagi matnlarda uchratish mumkin. ئـ [e] infisksidan yasalgan qo‘shma so‘zlar og‘zaki uslubga xosdir.

Maqolaga umumiyl xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ot yasovchi suffiksall allomorflar orqali yasalgan mavhum otlar fors tili lug‘at boyligini boyitishga va turli fonetik variantlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

O‘zbek tilidagi adabiyotlar

1. *Vohidov 2010*: Vohidov A. Fors tilida so‘z yasalishi. T.: -2010.

Fors tilidagi adabiyotlar

1. کلپاسی. 1371 : دکتر ایران کلپاسی. ساخت اشتقاقی واژه. تهران. 1371

2. انوری 1385 : دکتر حسن انوری. دستور زبان فارسی

Internet saytlari

1. <https://donya-e-eqtesad.com>
2. <https://bmi.ir/fa/services/199>
3. <http://www.sid.ir/fa/journal/ViewPaper.aspx?id=55108>
4. <https://tabnak.ir/fa/economic>

